

TILDA EMOTSIYA VA HISSIYOT IFODASI: EMOTIV BIRLIKLARNING TILDA QO'LLANILISHI

Kurbanova Komila Abdullo qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li, 21A

Email:abdkomka@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis emotsional holatlarni ifodalash bilan bog'liq nazariyalar va tadqiqotlarni tilshunos olimlarning fikrlari asosida tahlil qiladi, tilda emotsiyalarni ifodalashning turli xil ko'rinishlarini tadqiq etadi. Shuningdek, emotsiya va hissiyot tushunchalarining farqlari va maxsus yo'nalish – emotiologiya haqida ham fikrlar yoritib beriladi. Maqolada emotsional holatlarni ifodalashda qo'llaniladigan til birliklari va ularning tasnifi tegishli misollar yordamida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: emotsiya, hissiyot, emotiologiya, ekpressivlik, emotivlik kategoriyasi, til birliklari, emotive leksema, emotive leksika.

THE RESENTATION OF EMOTION AND FEELINGS IN THE LANGUAGE: THE USAGE OF EMOTIVE UNITS IN THE LANGUAGE

Kurbanova Komila Abdullo qizi

Uzbekistan State World Languages University Tashkent, Uchtepa district, Street Kichik halqa yo'li,

21A Email:abdkomka@gmail.com

Annotation: This thesis analyzes theories and research related to the expression of emotional states based on the opinions of linguists, studies various forms of expression of emotions in language. It also sheds light on the differences between the concepts of emotion and feeling and on a special direction - emotiology. The article explains the linguistic units used in the expression of emotional states and their classification using relevant examples.

Keywords: emotion, feeling, emotiology, expressiveness, emotive category, linguistic units, emotive lexeme, emotive lexicon.

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, muloqot uning hayotidagi ajralmas ijtimoiy xususiyatlaridan biri bo'lib kelgan. So'zlovchilar doimiy muloqotni amalga oshirish jarayonida turli xil til birliklaridan foydalanadi. Bu muloqot jarayonlari og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, o'zida konteksga va so'zlovchiga xos bo'lgan emotsional xilma-xillikni ham namoyon etadi. Ya'ni nutqda nafaqat fikrlar almashinuvi sodir bo'ladi, balki hissiy ifodalar ham muloqot jarayonidagi qatnashuvchilarga tom ma'noda ta'sir ko'rsatadi. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, emotsiyalarni til bilan bog'liq ravishda o'rganish maxsus yo'nalishni vujudga keltirgan. Shaxovskiy o'zining izlanishlari natijasida emotsiyalarning tilshunoslikdagi tarixi va ahamiyati haqida shunday deydi: "Tilshunoslik emotsiyalar uning predmeti ekanligini kechroq anglab yetdi va u haqida yetarli bilimlar

hajmi yo'qligi sababli u uzoq vaqt davomida his-tuyg'ular sohasidagi tadqiqotlarining asosiy yondashuvlarini shakllantirmadi. Ammo zamonaviy tilshunoslikda emotsiyalar bo'yicha tadqiqotning maxsus yo'nalishi – emotiologiya hissiyotlarning lingvistik mavjudligini o'rganishga qaratilgan nazariy yondashuvlar majmuasi sifatida paydo bo'ldi.”²¹

Shu o'rinda, biz hissiy va emotsional holatimizni ifodalashimiz qay tarzda namoyon bo'lishi, emotsiya va hissiyotning farqi hamda umumiy jihatlari haqidagi fikrlarga nazar tashlaymiz. Hissiyot jamiyat va o'z shaxsining o'zaro munosabati uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni aks ettirishdir. Emotsiya esa shaxs hayoti, faoliyati uchun foydali yoki zararli ta'sir qiluvchi va o'zining kelib chiqishi jihatidan shartsiz reflekslar (ovqatlanish, jinsiy va h.k.) bog'liq holda namoyon bo'ladigan «sodda hissiyotlar»dir.²² Bundan kelib chiqadiki, hissiyot sal kengrong ko'lamdagi munosabatni anglatadi, emotsiya ma'lum shartsiz reaksiyalar ta'sirida ko'zga tashlanadi. Demak, bu tushunchalar bir-biridan tubdan farq qiladigan, qarama-qarshi ma'nolarga ega tushunchalar emas.

Psixologiya darsliklarida kishilarning emotsional tili va uni ifodalashi turli tarzda namoyon bo'lishi haqida ham fikrlar yuritilgan. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovozning o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni deb ataladi.²³ Ya'ni tana tili orqali ham muloqot davomida insondagi hissiy holatlar, kechinmalar, javob tariqasida aks etuvchi munosabatni bemalol ko'rib tushuna olishimiz mumkin. Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, uchinchidan, tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.²⁴ Bu uchta holat ko'proq psixologik va biologik tasniflarga asoslanadi va emotsiyalarimizni namoyon etish siklini izohlaydi.

Barchamizga ma'lumki, atrofimizdagi bo'layotgan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatimiz, muloqot jarayonidagi mavzu va fikrlarga bo'lgan reaksiyamiz tilshunoslik nuqtai nazaridan turli xil lingvistik birliklar orqali ham izohlanadi.

Mazkur birliklarni ma'lum bir kategoriyalarga bo'lib tahlil qilish tadqiqot ishini yanada osonlashtirishga imkon beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Emotsional holatlar og'zaki va yozma tarzda quyidagi til birliklari asosida ifodalanishi mumkin:

- Emotsiya so'zlari – bunga sifat, ot va fe'l so'z turkumiga oid misollar kirishi mumkin: xafa(sad) – sifat; xafalik(sadness) – ot;
- Metafra va figurativ til: I'm on cloud 9 – Og'zim qulog'imda (men juda xursandman)
- Sintaktik qurilmalar – undov, kleft va ergash gaplar:

Undov gap: That is just what I wanted! Do you think this sheep will need plenty of grass? [5,9].

²¹ Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – М.: Гнозис, 2008. – 416 с.

²² Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2010 -221.

²³ Xaydarov F, Xalilova N. Umumiy psixologiya Toshkent 2010. 230

²⁴ Xaydarov F, Xalilova N. Umumiy psixologiya T.: Fan va texnologiyalar - 2010, -232b.

What an amazing night! It's excitement that made her stay up late. I was afraid because I was overwhelmed with terror when saw water.

- Ma'noni kuchaytiruvchi va aniqlovchi so'zlar:

'I am so unhappy. I cannot play with you,' the fox said. [5,70]²⁵

She is so exhausted. He is extremely nervous right now.

• Intonatsiya va punktuatsiya – og'zaki nutqda bu ohang va urg'uning qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Yozma nutqda esa bu ko'proq tinish belgilari, ellipsis, kursiv harflar yordamida aks ettiriladi.

• Diskurs qurilmalari – hikoya va dialogik qurilmalar. Dialog diskursida bu asosan savol-javoblar, muloqotda navbat almashish kabilarda aks etishi mumkin.

• Pragmatika va kontekst – bunda madaniyat va vaziyat nuqtai nazaridan tahlil amalga oshiriladi.

• Noverbal belgilar – yozma raqamli muloqotlar foirmatida bu bosh harflardan va emotsiyani ifodalovchi belgilardan foydalanishni va matn formatidagi ma'lum o'zgarishlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, leksikada emotivlik kategoriyasini amalga oshirishni o'rganishning hozirgi davrida quyidagi ilmiy yo'nalishlarni aniqlash mumkin:

- 1) alohida emotiv leksemalarni tahlil qilish;
- 2) emotiv leksikaning leksik-semantik guruhlarini o'rganish;
- 3) emotiv leksikaning sinonimlik va antonimlik munosabatlarini tadqiq etish;
- 4) emotiv leksikani qamrab oluvchi semantik/tematik maydonlarni tahlil qilish;
- 5) emotsiyalarning semantik ifodasida metaforaning tutgan o'rnini o'rganish.²⁶

Yuqoridagi ketma-ketlik emotivlik kategoriyasini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va tadqiqot ishini amaliy tahlil qilishga yordam beradi.

Xulosa

Ilmiy ish so'nggida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday nutqni emotsiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Emotsional ifodalar bilan nutq yana-da boyiydi, so'zlovchi fikrini va holatini tinglovchiga aniqroq qilib yetkazib beroladi.

Emotsional holatlar va hissiyotlar biroz farqlansa-da, ular bir-biriga bog'liq tushunchalar hisoblanadi.

Hissiyotlar va emotsional kategoriyani o'rganadigan yo'nalish – emotiologiya yuzaga kelgandan so'ng tilshunos olimlar sohaning bu jabhasiga ham e'tibor bera boshlashdi.

Ayniqsa, bu borada Shaxovskiyning qilgan ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq. Jahon tilshunosligida bu mavzu ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, o'zbek manbalari hali hanuz bu borada biroz cheklangan miqdordagi manbalarga ega bo'lib qolmoqda.

Kelajakda emotsional holatlar ifodasining tillararo qiyosiy tadqiqi va tahlili ko'proq amalga oshirilishi, yosh izlanuvchilar tomonidan ingliz va o'zbek qiyosiy bazasining yaratilishi, shubhasiz, muhim va dolzarb qadamlardan biri bo'lishi mumkin.

Shuningdek, bu kabi sa'y-harakatlar har ikkala til tajimashunosligida ham salmoqli va ahamiyatli tashabbus sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Zero, har xil til va madaniyat turfa xil emotsional holatlar ifodasiga va talqiniga ega.

²⁵ Antoine De Saint-Exupery, The Little Prince, Macmillan 2016 – 96b.

²⁶ Шаховский В.И. Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Учебное пособие, Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена» - 2009 – 39с.

Ularni kontekstdan anglab, to'g'ri tarjima qilib sayqallab berish har bir mohir tarjimonning professional vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antoine De Saint-Exupery, The Little Prince, Macmillan 2016 – 96b.
2. Xaydarov F, Xalilova N. Umumiy psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 230b.
3. Xaydarov F, Xalilova N. Umumiy psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 232b.
4. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti – Toshkent, 2010. – 221b.
5. Шаховский в.и. Лингвистическая теория эмоций. – М.: Гнозис, 2008. – 416с.
6. Шаховский В.И. Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Учебное пособие, Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена», 2009. – 39с.